

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2022- yil 1- mart holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022- yil 1- mart holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni


(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z ornida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'nga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2022-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2022- yil yanvar- fevral oyida)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(1 - mart xolatiga, birlikda)




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar


(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

6

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni
o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,1** foizga oshdi




■ Kichik tadbirdorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chovachilik,
ovchilik va bu sohalarda xizmat
ko'rsatish

■ O'rmon xo'jaligi

■ Baliqchilik xo'jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)


7



*Jami faoliyat
ko'rsatayotgan sanoat
korxonasi va
tashkilotlarning
umumiyligi o'tgan
yilning shu davriga
nisbatan 8,3 foizga
oshdi*



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 3 232 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,3 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishslash) sanoatida 9,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 91,6 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 31,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,8 %) o'sishi kuzatildi va tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 95,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 5,5 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 85,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,1 %) tashkil etdi.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **3,0** foizga oshdi



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni, yillar kesimida



- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
- fuqarolik obyektlarini qurish
- bino va inshootlar qurish

2022-yil 1-mart holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 2 399 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,0 % ga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu-bino va inshootlar qurishda - o'tgan yilga nisbatan 1,1 % ga (jami qurilishdagi ulushi 59,6 %), fuqarolik obyektlarini qurish - 27,1 % ga (jami qurilishdagi ulushi 11,0 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlaringa 99,8 % ga (jami qurilishdagi ulushi 29,4 %) tashkil etdi.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)




*Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **14,0** foizga oshdi*



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, yillar kesimida

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 6 461 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,0 % ga oshdi.

Jami savdo korxona va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili - avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan 13,1 % ga (jami savdodagi ulushi 69,7 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan 16,8 % ga (jami savdodagi ulushi 22,0 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan - 13,5 % ga (jami savdodagi ulushi 8,3 %) o'sishidir.



■ Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi

■ Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

■ Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**
(2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

10

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

444



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

28



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish


10



**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni**



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,3 foizga oshdi**



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



11,5
foizga oshdi



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

11




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **6,7** foizga oshdi



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



6,6
foizga oshdi



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



103
yashash bo'yicha xizmatlar




1 269
Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2022-yil 1- mart holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 1 372 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,7 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili - oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar 6,2 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 92,5 %), yashash bo'yicha xizmatlarning 13,2% ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,5 %) o'sishidir.

Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2022-yil 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-mart holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- mart holatiga ko'ra 2 098 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 318 ga yoki 17,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 951 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 308 ga yoki 18,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 57 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 57,2 % ni tashkil etdi.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- mart holatiga ko'ra 15 789 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 847 ga yoki 13,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 14 944 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 645 taga yoki 12,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 538 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 83,5 % ni tashkil etgan.



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni


(2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

14



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2022- yil 1- mart holatiga ko'ra 179 tani tashkil etib, ulardan 178 tasi yoki 99,4 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 14 ta yoki 8,5 % ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-fevral oyida 3 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

15

(1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)


16

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Qoraqalpog'iston Respublikasi	178	107	71
tumanlar:			
Amudaryo	5	1	4
Beruniy	10	5	5
Bo'zatov	6	6	0
Qorao'zak	11	7	4
Kegeyli	6	5	1
Qo'ng'irot	9	7	2
Qonliko'l	7	3	4
Mo'ynoq	37	25	12
Nukus	9	5	4
Taxiatosh	9	3	6
Taxtako'pir	4	2	2
To'rtko'l	6	5	1
Xo'jayli	3	1	2
Chimboy	4	3	1
Shumanay	4	2	2
Ellikqal'a	5	4	1
Nukus sh.	43	23	20

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Nukus shahrida 43 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 24,2 %), Mo'ynoq 37 ta (20,8 %), Qorao'zak 11 ta (6,2%), Beruniy 10 ta (5,6%), Nukus, Qo'ng'irot va Taxiatosh tumanlarida 9 ta (5,1 %), Qonliko'l 7 ta (4,0%), Bo'zatov, Kegeyli va To'rtko'l tumanlarida 6 ta (3,4 %) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Nukus shahri (28,2 %), To'rtko'l (9,8 %), Beruniy (8,4 %), Amudaryo (7,5 %), Ellikqal'a (6,1 %), Qo'ng'irot (5,8 %), Xo'jayli (5,3 %), Nukus (4,3 %), Chimboy (4,1 %), Taxiatosh va Kegeyli (3,2 %), Qorao'zak va Mo'ynoqda (2,8 %), Qonliko'l (2,6 %), Shumanay tumanlarida (2,5 %), Taxtako'pir (1,8 %) va Bo'zatov (1,6%) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil yanvar- fevral oyida, birlikda)


2022- yilning yanvar-fevral oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Nukus shahrida (24,3 %), To'rtko'l (10,7 %), Beruniyda (9,6 %), Taxiatosh (6,8 %), Xo'jayli (4,1%), Ellikqal'a (5,9%), Qo'ng'irot (7,1%), Amudaryo (6,5 %), Nukus (4,1 %), Chimboy (4,5 %), Mo'ynoqda (3,5 %), Kegeyli (4,1 %), Shumanay (2,1%) Qorao'zak (1,9 %), Qonliko'l (1,1 %), Bo'zatov (1,7%), Taxtako'pir (2,0 %) tumanlari ulushiga tegishli.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)

18



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, birlikda)



2022- yil 1- mart holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Nukus shahrida (33,3 %), To'rtko'l (10,2 %), Beruniy (7,2 %), Amudaryo tumani (6,8 %), Xo'jayli (5,4 %), Qo'ng'irot (5,3 %), Nukus (5,0 %), Ellikqal'a (4,3 %), Chimboy (4,3 %), Kegeyli (3,3 %), Mo'ynoq (3,0 %), Qorao'zak (2,9 %), Taxiatosh tumani (2,5 %), Bo'zatov va Qonliko'l tumanlarida (1,8 %), Shumanay (1,7 %), Taxtako'pir (1,2%) tumanlari hissasiga tegishli.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga-vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275 - son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: 61 224-92-09